

O'ZBEKISTONDA TA'LIM SALOHİYATINI YUKSALTIRISHDA
XOTIN-QIZLARINING O'RNI

Elboyeva Shahnoza Bo'riniyozovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM

Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Berdiyeva Gulrux Adilovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston xotin-qizlarning ilm-fan rivojidagi o'rni, ularning maqomini yuksaltirish, huquq va manfaatlariga qaratilgan davlat siyosatining ta'minlanganligiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ilm-fanda xotin-qizlarning ishtiroki misolida pedagogika yo'nalishi olimlari, xususan, Qashqadaryolik pedagog olimlar faoliyati yoritilgan.

Kalit so'zlar. xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, ilm-fan, taraqqiyot, BTM Konvensiyasi, O'zbek pedagog olimlari, Qashqadaryo, Tal'at G'afforova, Shahlo Nurullayeva.

Аннотация. В данной статье представлена информация о роли женщин Узбекистана в развитии науки, повышении их статуса, обеспечении государственной политики, направленной на защиту их прав и интересов. Также на примере участия женщин в науке освещена деятельность ученых педагогического направления, в частности ученых-педагогов из Кашкадарьи.

Ключевые слова. права и свободы женщин, наука, прогресс, Конвенция БТМ, узбекские ученые-педагоги, Кашкадарья, Талъат Гаффорова, Шахло Нуруллаева.

Annotation. This article provides information on the role of Uzbek women in the development of science, raising their status, and ensuring state policy aimed at protecting their rights and interests. Also, using the example of women's participation in science, the activities of scientists of the pedagogical field, in particular scientists and teachers from Kashkadarya, are highlighted.

Keywords. women's rights and freedoms, science, progress, BTM Convention, Uzbek scientists and educators, Kashkadarya, Talat Gafforova, Shakhlo Nurullayeva.

Kirish. XXI asrga kelib jahonda xotin-qizlarning jamiyat hayotida o'rning ortib borishi va o'z navbatida, ularning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etishi mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda, aholi turmush tarzining yuksalishida muhim ahamiyat kasb etdi. Shu bois ayollarning ijtimoiy faolligini yuksaltirish, ularning huquq va erkinliklarini kafolatlash, sog'lom avlod tarbiyasi, xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini rag'batlantirish davr talabiga aylandi.

So‘nggi yillarda jamiyatdagi o‘zgarishlarga hamohang O‘zbekistonda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida alohida e‘tibor berilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “... bugun O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi – ayollarimizga e‘tibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatishni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni, maqomini mustahkamlash, ularning huquq va manfaatlarini ta‘minlashdir”.

Mamlakatda 17 mln.dan ziyod xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta‘minlovchi 22 ta qonun va 30 dan ziyod me‘yoriy hujjatlarning e‘lon qilinganligi mazkur soha davlatning ustuvor vazifalaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Metodlar. Ma‘lumki, dunyo mamlakatlarining tajribasi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalarining rivojlanishida asosiy omil sifatida ilm-fanning rivojiga bo‘lgan e‘tiborning mavjudligidan dalolat beradi. Xususan, O‘zbekistonda ham bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyatni barpo etish yo‘lida ilm-fanni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur sohani rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekistonda doimiy ravishda o‘zgarishlar va yangilanishlar amalga oshirildi.

Ta‘kidlash joizki, 1979-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti “Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi Konvensiyani qabul qildi. Bu konvensiya 1981- yil 3-sentyabrda xalqaro qonun sifatida tasdiqlandi, dunyoning 189 davlati ratifikatsiya qilgani holatida O‘rta Osiyo mamlakatlari ichida birinchilardan bo‘lib O‘zbekiston 1995-yil ushbu konvensiyani ratifikatsiya qildi va uning barcha majburiyatlariga to‘laqonli qo‘shildi[1]. 1995-yil mart oyida “Davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlar rolini kuchaytirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-1084-son farmoni imzolandi. Mazkur farmondan so‘ng, vaziyat ancha ijobiy tomonga o‘zgardi. Shunday ekan aytish mumkinki, mamlakatda xotin-qizlarning mavjud masalalarini hal etishda davlat proteksiyasi tiklandi. Bunga ko‘ra, davlat organlarining yordami ayollarning yangi jamiyatga ko‘nikishi va o‘zligini qayta topib olishda juda muhim bosqich bo‘ldi. Bu farmon, ayollarga muhim imtiyozlar berdi. Avvalo xotin-qizlarning ijro etuvchi hokimiyat tizimlaridagi mansablari tiklandi, ularga ayollar muammolari bilan shug‘ullanish uchun keng sharoitlar yaratildi.

Mustaqillik yillarida bu kabi huquqiy-me‘yoriy hujjatlar doimiy takomillashib bordi. 1999-yil 14-aprelda O‘zbekiston Respublikasining 760-I-son “Xotin-qizlarga qo‘shimcha imtiyozlar to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi. Qonun bo‘yicha xotin-qizlarga ijtimoiy-iqtisodiy imtiyozlar ro‘yxati shakllantirildi. 2004-yil 25-maydagi “O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni e‘lon qilindi. Qo‘mita ishlari bo‘yicha kerakli normativ hujjatlar qabul qilindi. 2010-yil 30-sentyabrdagi PF-4245-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni

qabul qilindi[2].

Respublikada xotin-qizlarga oid davlat siyosatiga yangicha tus berilgan davr sifatida asosan prezident Sh. Mirziyoyevning sa'y harakati bilan olib borilayotgan chora-tadbirlarni sanab o'tish mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni asosida, ayollarning ham ilm-fan va maorif sohalarida ishlar rejalashtirildi, bunda ham ularning huquqlari kafolatlanishi rasmiylashtirildi. 2018-yil 2-fevraldagi PF-53-25-son "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni aynan gender tenglik siyosatini shakllantirgan holda ijrosi bilan bog'liq masalalarga aniqlik kiritdi[3]. 2019-yil 7-martdagi PQ-4235-son "Xotin-qizlarning mehnat huquqlarining kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ham xotin-qizlarga oid davlat siyosatida muhim qadam bo'lib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy sohalaridagi ishtiroki masalalari ijtimoiy soha olimlari tomonidan o'rganilgan. D.Alimova, D.Bobojonova, Ya.Abdullayeva, M. Xolmatova, N.Muravyova, Yu.Ergasheva, T. G'afforova, Sh.Ashurova va boshqa mualliflarning ishlarida O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy sohalaridagi faoliyati chuqur talqin etilgan bo'lsada, ammo xotin-qizlarning ilm-fan va maorifdagi faoliyati alohida maxsus tadqiq etilmagan.

Muhokama. O'tgan tarixiy davr mobaynida xotin-qizlarning jamiyatga bevosita ta'siri kuchayib bordi. O'zbekistonda mustaqillik yillarida demokratik jamiyatni barpo etish yo'lida ilm-fanni rivojlantirish muhim dolzarb masalalardan biri bo'ldi. Bu sohani rivojlantirish bo'yicha O'zbekistonda muntazam ravishda islohot va yangilanishlar amalga oshirildi. O'zbekistonda ilm-fan rivoji uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ilmiy va innovatsion faoliyatning hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, barcha sohalar, jumladan aniq, tabiiy, ijtimoiy, texnik sohalariga xizmat qiluvchi fanlarni hozirgi zamon talablariga mos moddiy-texnik resurslar bilan ta'minlash, mutaxassis kadrlar tayyorlash kabi masalalar davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bu jarayonda xotin-qizlar ham faol ishtirok etib, olib borilayotgan islohotlarda o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shdi. Bunday islohotlar o'zbek xotin-qizlar ruhiyatiga ta'sir qildiki, oila, mehnat va jamoat ishlari, ilmiy faoliyatda doimiy namuna ko'rsatib keldilar va o'z o'rniga ega bo'ldilar. Masalan, O'zbekiston pedagog olimlari ilm-fan ravnaqida samarali hissa qo'shib keldi. Bu kabi samarali ishlarda pedagog olimlarning ilmiy izlanishlari natijasida tub burulish yuz berdi. O'zbek pedagog olimlari o'z vatani va davlatini jahonning yuksak taraqqiy etgan davlatlari qatoriga qo'shilishiga salmoqli hissa qo'shmoqda. Xususan, O'zbekistonda pedagogika fanlari

doktori va professorlari singari olimalar mamlakatda ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, yetuk mutaxassis malakali kadrlarni yetishtirishda fidoiylik ko'rsatib, vatan sharafini ulug'lamoqdalar. Masalan, qashqadaryolik pedagog olima ayol Tal'at G'afforova pedagogika fanining dolzarb muammolarini o'rgandi[4]. Bu bo'yicha 180 ga yaqin ilmiy, metodik va ommabop ishlarni e'lon qildi. U Respublika Ta'lim markazi ilmiy-metodik kengashining a'zosi hamda "Boshlang'ich ta'lim" jurnali tahririyat a'zosi sifatida Respublikada boshlang'ich ta'limning rivojiga katta hissa qo'shdi.

"Boshlang'ich ta'lim" jurnali sahifalarida e'lon qilingan maqolalari o'zining dolzarbliigi, bugungi kun muammolariga bag'ishlanganligi bilan jurnal muxlislarining diqqatini tortdi. Masalan "Boshlang'ich ta'lim" jurnalining 2012 yil 9-sonida e'lon qilingan "Mustaqil fikrlashga o'rgatish" mavzusidagi maqolasi jurnalning "Mahorat" ijodiy tanlovida "Eng yaxshi maqola uchun" nominatsiyasi bo'yicha birinchi o'rinni oldi. Mustakillikning dastlabki yillarida olima «Istiqlol va boshlang'ich ta'lim muammolari» mavzusida qator anjumanlar o'tkazdi va boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish yuzasidan turli fikr-mulohazalarni tinimsiz o'rganib bordi. O'rgangan izlanishlari asosida unda boshlang'ich sinflar uchun yangi o'quv-metodik qo'llanma yaratish g'oyasi tug'ildi. Natijada ijodiy guruh tuzdi va 1-sinflar uchun o'quv-metodik majmua yaratdi. Bu majmua «Alifbe», «Ona tili va o'qish» darsliklari, 1- va 2-yozuv daftarlari, o'qituvchilar uchun «1-sinfda savod darslari» metodik qo'llanmalarini o'z ichiga olgan edi.

2002 yilda O'zbekiston Respublikasi Xalk ta'limi vazirligining darsliklar tanlovi e'lon kilingach, tanlovda katnashib «Ona tili», «O'qish kitobi» darsliklari bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi va ushbu darsliklarni va ular uchun «1-sinfda ona tili darslari», «1-sinfda o'qish darslari» metodik qo'llanmalarini yaratdi. 2005 yilda e'lon qilingan "Eng yaxshi darslik va o'quv adabiyoti muallifi" konkursida T.G'afforovaning "1-sinfda o'qish darslari" metodik qo'llanmasi 1- o'rinni egalladi.

2012 yilda O'zbekiston Respublikasi Xalk ta'limi vazirligining keyingi darsliklar tanlovi e'lon kilindi. Unda T.G'afforova o'z hammualliflari bilan 2 - sinf "O'qish kitobi" bo'yicha tanlovda qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritdi va 2012-2013 o'quv yilida uning yana bitta darsligi o'quvchilar qo'lga bordi. Bu darslik asosida o'qitish bo'yicha o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma ham yaratildi. Shuningdek, T.G'afforova «O'qituvchining professional faoliyati», "Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari", "Kurs ishi va nazorat ishlari yozish uchun metodik tavsiyalar", «Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar», «Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar», "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" kabi qator o'quv qo'llanmalarining "Rahbarlikning oltin qoidalarit", "Qashqadaryo olimalari"(ocherklar tuplami) kabi ko'plab risolalarning muallifi hisoblanadi. T.G'afforova ko'pchilik olimalarning ustози ham hisoblanadi.

Olimaning shunday shogirdlaridan biri Shahlo Nurullayevadir. 2012 yil

Sh.Nurullayeva ustoz T.G'afforova bilan hammualliflikda tayyorlagan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinflari uchun "O'qish kitobi" darsligi bilan tenderda g'olib bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tavsiyasiga ko'ra nashr etilib, hozirgi kunga qadar Respublika maktablarida foydalanib kelinmoqda[5]. Xuddi shu yili darslik bilan birga nashr etilgan "2-sinfda o'qish darslari" o'quv qo'llanmasi o'qituvchi kitobi sifatida nashr etildi. Sh. Nurullayeva pedagogik kasbi jarayonida o'quv mashg'ulotlarining mazmundorligi, nutq madaniyatining yuksakligi va berayotgan bilimlarining talabalar tomonidan faol qabul qilinishi bilan ajralib turadi. Uning 30 dan ortiq ilmiy maqolalari va ko'plab ilmiy ishlari Respublikaning nufuzli matbuotlarida e'lon qilingan. Jumladan "Boshlang'ich sinf ona tili darslarida mustaqil ishlar va didaktik o'yinlar" (2003), "Boshlang'ich sinf ona tili darslari uchun didaktik materiallar" (2004), "Pedagogik mahorat" kursidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi" (2011), "Shaxs – televideniye - ta'lim-tarbiya" (2011) kabi o'quv-uslubiy qo'llanmalari nashr etilib, amalda foydalanib kelinmoqda. Sh. Nurullayeva 2009- yildan 2014-yilgacha Boshlang'ich ta'lim kafedrasini mudiri lavozimlarida ishlab, kafedrada professor-o'qituvchilar faoliyatini samarali tashkil etish, o'qitiladigan fanlarning uslubiy ta'minotini takomillashtirish, tegishli hujjatlarni to'g'ri yuritish borasida ijobiy natijalarni qo'lga kiritdi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tavsiya etilgan yo'riqnomaga asosan kafedra faoliyatini namunaviy kafedra me'yorlariga ko'ra tashkil etishga harakat qildi va muvaffaqiyatlarga erishdi.

2014-yildan Pedagogika fakultetining dekani vazifasida ishlab keldi. Ushbu lavozimda ishlashi davomida u fakultet talabalari hamda professor-o'qituvchilarga nisbatan o'z navbatida, talabchan va mehribon rahbar sifatida shakllandi. U har bir ishni bajarishda o'ziga nisbatan talabchan, fidoiy va samimiyligi tufayli fakultet jamoasining hurmati va e'tiboriga sazovor bo'ldi. Sh.Nurullayeva bugungi kunda yetuk olim, Pedagogika fani yo'nalishida ilmiy maktab yaratdi. Sh.Nurullayeva rahbarligida 5 nafar tadqiqotchilar dissertatsiya ishlarini himoya qilib, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldilar.

Xulosa. Мустақиллик йилларида хотин-қизларнинг жамиятдаги ўрни, уларнинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ҳамда маданий соҳалардаги иштироки масалалари ижтимоий соҳа олималари томонидан ўрганилди. Айниқса педагогика фани ва тизимида хотин-қизларнинг ўрни яққол намоён бўлди. Бунда асосан давлат сиёсатининг изчиллик билан қабул қилган меъёрий ҳужжатлари ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамлаб берди. Олималар фанда янги педагогик ёндашувларни тарғиб қилишда, психологик жараёнларни асослашда, назарияларни янгилашда ҳисса қўшди. Ўзбекистонда педагогика фани ривожиди хотин-қизлар олдинги ўринларда бўлди. Биргина Қашқадарё вилояти мисолида Талъат Ғаффорова, Бибихол Хидирова, Мариям Мазидова, Муслима Бозорова, Олия Ҳайдарова, Шахло Нуруллаева, Нодима Орипова, Дилдора Кенжаева,

Умида Ёзиева, Лола Бекназарова, Мовлуда Файзиева, Меҳри Норбошева, Умида Мамарасулова, Гулнора Сатторова, Муслима Бозорова, Бибихол Каримова, Хадича Шарафутдинова номларини қайд этиш мумкин.

Хуллас, таълим соҳаси ислохотларида хотин-қизларнинг фаол иштироки уларнинг жамиятда нуфузининг ортишига, турмуш шароитининг яхшиланишига хизмат қилмоқда. Хотин-қизлар таълимни ривожлантиришга қўшган ҳиссаси учун ҳукумат томонидан муносиб тақдирланиб, моддий рағбатлантирилди. Умумтаълим соҳасида мукофотланганларнинг катта қисмини хотин-қизлар ташкил этди.

Adabiyotlar va manbalar ro'yxati

1. Защита прав, свобод и интересов человека в международном праве: история, направления, формы.

2. Mamatkulov, B. (2021, November). A New Interpretation of Industry in Uzbekistan During Independence. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (pp. 158-161).

3. Mamatkulov, B. (2021). Conflicts of the process of the industrial staff training in the soviet period. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 507-510.

4. Buriyevna, M. S., & Sherozovich, M. B. THE FACTOR OF ISLAM RELIGION FOR ENSURING PEACE AMONG CONFESSIONS (USING THE EXAMPLE UZBEKISTAN EXPERIENCE).

5. Mamatkulov, B. S. (2024). O 'ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI: TARIXIY TAHLIL VA OQIBATLAR (XX-ASRNING 30-40 y.). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 56(2), 33-39.

6. Baymanovna, A. R., & Eshqobil ogli, M. B. (2024). ESTABLISHMENT OF CULTURAL RELATIONS BETWEEN STATES AND ITS HISTORICAL BACKGROUND. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 40(5), 27-30.

7. BAYMANOVNA, A. R., & Eshqobil ogli, M. B. (2024). O 'ZBEKISTON VA HINDISTON MAMLAKAT XALQLARINING SPORT SOHASIDAGI MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 15(3), 27-30.

8. Baymanovna, A. R. (2024). Uzbekistan-India: Development of Economic Cooperation. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521), 2(5), 594-598.

9. BAYMANOVNA, A. R., & Eshqobil ogli, M. B. (2024). O 'ZBEKISTON VA HINDISTON MAMLAKAT XALQLARINING SPORT SOHASIDAGI MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 15(3), 27-30.

10. Shonazarovich, Q. A. (2024). IN 1925-1954, THE MEASURES FOR THE SPECIALIZATION OF UZBEKISTAN AS THE MAIN COTTON BASE OF THE USSR AND ITS CONSEQUENCES. *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(5), 67-71.

11. Shonazarovich, K. A. (2023). Development of the Craft Industry in the City

- of Karshi at the Beginning of the 19th-20th Centuries. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(12), 135-138.
12. Shonazarovich, Q. A., & Adilovna, B. G. (2024). OLTIN VOHA TEPALARI TILSIMI-TARIX KO 'ZGUSIDA: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 6(2), 86-94.
13. Elboyeva, S. B. (2022). YOSHLARDA YUKSAK MA'NAVIYATNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 576-581.
14. Алланазаров, М. Х., & Элбоева, Ш. Б. (2020). МАНИПУЛЯЦИЯ: ЭФФЕКТ МОЛОДЕЖНОГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК ОРУЖИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ. In *30 лет Конвенции о правах ребенка: современные вызовы и пути решения проблем в сфере защиты прав детей* (pp. 187-191).
15. Ergashev, U. K. (2024). THE BUKHARA EMIRATE: A HISTORICAL OVERVIEW. *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(12), 131-135.
16. ERGASHEV, U. (2024). TEMIR-QAPIG'–SUG'D VA TOHARISTON ORASIDAGI TARIXIY TOG' GUZARI. *UzMU xabarlari*, 1(1.4. 1), 43-46.
17. Ergashev, U. Q. (2024). IMPORTANT INFORMATION ABOUT THE HISTORY OF THE GUZOR KINGDOM OF THE BUKHARA EMIRATE (BASED ON THE EXAMPLE OF GULSHANI'S BOOK "THE HISTORY OF HUMOYUN"). *Western European Journal of Historical Events and Social Science*, 2(10), 74-79
18. Esanova, N. P. (2024). MAIN FACTORS OF TEXTILE INDUSTRY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN (1991-2021 Years). *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(9), 5-13
19. Nilufar, E. (2024). MUSTAQILLIK YILLARIDA YIRIK SANOAT SOHASIDAGI ISLOHOTLAR. *Modern education and development*, 16(5), 250-259.
20. Pulatovna, E. N. (2024). UZBEKISTAN'S PLACE IN INTERSTATE INDUSTRY AND TRADE EXHIBITIONS (1991-2021 YEARS). *International journal of artificial intelligence*, 4(07), 342-343.
21. Ruzimuratovna, O. N. (2024). A New Renaissance: the Role of Youth in Shaping Consciousness and Thinking. *Gospodarka i Innowacje.*, 52, 113-115.
22. RUZIMURATOVNA, O. N. (2022). THE SIGNIFICANCE OF AESTHETICS IN PERSONAL EDUCATION. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 10-14.
23. Ruzimuratovna, O. N. (2022). WAYS TO ABSORB THE NATIONAL IDEA IN THE YOUTH MIND. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(10), 122-124.
24. Akbarovna, S. N. (2024). FIVE INITIATIVES AND ITS IMPLEMENTATION IN SECONDARY SCHOOLS. *Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions*, 2(6), 11-12.
25. Akbarovna, S. N. (2024). PROBLEMS IN THE MATERIAL AND TECHNICAL BASE OF SECONDARY SCHOOLS OF THE SOUTHERN

REGIONS OF UZBEKISTAN IN THE YEARS OF INDEPENDENCE AND THEIR SOLUTION. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(3), 321-323.

26. Sharopova, N. A. (2019). IMPROVING THE GENERAL SECONDARY EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN. *Theoretical & Applied Science*, (10), 331-334.

27. Murtazova, S. B. (2021). VATAN HIMOYACHILARI YODI MANGU BARHAYOT!(Ikkinchi jahon urushida noma'lum ketgan bobom Begmatov Omon va Xaramjo 'ylik urush qatnashchilari haqida). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 544-549.

28. Murtazova, S. B. (2022). The Queens Are in the Hearts Forever!. *Miasto Przyszłości*, 23, 11-16.

29. Burievna, M. S. (2023). FROM THE HISTORY OF MUSIC CULTURE OF AMIR TIMUR AND THE TEMURIAN PERIOD. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).

30. Suyunovna, J. S. (2023). THE IMPORTANCE OF GENDER EQUALITY IN THE EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(9), 114-117.

31. Suyunovna, J. S. (2021). MA'NAVIY YUKSALISH YO'LIDAGI TAHDIDLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 186-194.

32. Жумаева, Ш. С. (2023). Ахборот хавфсизлиги ва мафкуравий ҳимоя. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5 SPECIAL), 286-290.

33. Sadullayevna, A. D. (2023). Young People-The Creators of New Uzbekistan. *The Peerian Journal*, 25, 11-16.

34. Akhmedova, D. S. (2023). SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE WITH A MODERN WORLDVIEW. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 304-309.

35. Sadullayevna, A. D. SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE WITH A MODERN WORLDVIEW.